TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

QUDRATOVA SHAHNOZA SHUXRAT QIZI

YASHASH VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Termiz – 2026

UDK: 614:338.27(575.42)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic sciences

Qudratova Shahnoza Shuxrat qizi
Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida).....3

Кудратова Шахноза Шухрат кизи
Эконометрическое моделирование основных тенденций развития гостинично-ресторанного сектора (на примере Сурхандарьинской области) 29

Qudratova Shahnoza Shuxrat qizi
Econometric modeling of key trends in the development of accommodation and catering services (using the example of the Surkhandarya region).....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....62

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

QUDRATOVA SHAHNOZA SHUXRAT QIZI

YASHASH VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Iqt6856 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tersu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jumayev Farrux Toshmuratovich** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Qosimov Azamat Abdukarimovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.H.Toshqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.T.To‘lakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

O.A.Abdug‘aniyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari turizm, bandlik va hududiy iqtisodiy faollikni rivojlantirishda muhim yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu sohaning rivojlanishi aholining daromadlari, iste’mol talabi, turistik oqimlar, investitsiyalar, infratuzilma va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, turizm OECD mamlakatlari yalpi ichki mahsulotining o‘rtacha 4,0 % ini, bandlikning 6,3 % ini va xizmatlar eksportining 19,3 % ini tashkil etadi[1]. Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishiga iqtisodiy, demografik, infratuzilmaviy va institutsional omillar ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlar hajmi, korxonalar samaradorligi, talab va taklif nisbatlari hamda hududiy tafovutlarni statistik baholash muhim ilmiy vazifalardan biridir. Shunga ko‘ra mazkur sohaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, ta’sir etuvchi omillarni statistik-ekonometrik usullar orqali baholash va istiqboldagi ko‘rsatkichlarni prognozlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Jahon mamlakatlarida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan talabning izchil kengayishi ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalarini statistik-ekonometrik usullar yordamida o‘rganishni taqozo etmoqda. Bunda mavjud muammolarni aniqlash, aholining yashash va ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hamda xizmatlar bozori samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Xizmatlar sohasi rivojlanish darajasini baholash, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish orqali tahlil qilish, rivojlanish dinamikasini barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni shakllantirish va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Ayniqsa, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida baholash hamda kelgusi rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlash mazkur sohani chuqur tadqiq etishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish, ularning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy servis texnologiyalarini joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida xizmatlar sohasini rivojlantirish, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va zamonaviy xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini joriy etish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilangan[2]. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining statistik

[1] Jahon bankining World Development Indicators ma’lumotlar bazasi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

dinamikasini tahlil qilish, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda sohaning istiqboldagi rivojlanishini ekonometrik modellashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-sonli “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-sonli “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-noyabrdagi “Umumiy ovqatlanish, mehmonxona va turoperatorlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlashtirish va ularning qonuniy ishlashi uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 745-sonli qarori hamda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasini rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari hamda ularga ta’sir etuvchi omillar xorijiy olimlar tomonidan iqtisodiy-statistik usullar asosida tadqiq etilgan. Jumladan, Ch.Wu, X.Jiao, G.Lin, S.Goss-Turner, J.S.Edwards, H.Causa[3] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ushbu yo‘nalishda izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari, olimlari tomonidan yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarining iqtisodiy rivojlanishi, boshqaruv mexanizmlari hamda xizmatlar samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Jumladan, К.В.Морозов, С.О.Некрасова, А.В.Исаенко, А.Т.Васюкова, В.И.Пивоваров, К.В.Пивоваров, В.А.Сидякова[4] hamda boshqa tadqiqotchilar

[3] Chenguang Wu // Econometric analysis of tourist expenditures: PhD dissertation. – Hong Kong Polytechnic University, 2010. – 275 p.; Xiaoying Jiao // Developing Spatiotemporal Econometric Methods for Tourism Demand Forecasting: PhD dissertation. – University of Surrey, 2021; Gabrielle Lin // Behavioral Economic Analysis of Tourism Demand: PhD dissertation. – University of Surrey, 2024. – 168 p.; S.Goss-Turner // The accommodation sector. In: Jones P. (Ed.), Introduction to Hospitality Operations. London: Cassell, 1996, pp. 21–35.; J.S.Edwards, H.Causa // What is food service? Journal of Foodservice, 2009, Vol. 20, Issue 1, pp. 1–3.

[4] К.В.Морозов // Экономические основы формирования гостиничного хозяйства: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2008 г.; С.О.Некрасова // Совершенствование организационно-экономического механизма управления предприятиями общественного питания (на примере предприятий питания Республики Адыгея): диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Майкоп, 2007.; А.В.Исаенко // Развитие общественного питания потребительской кооперации: теория, методология, стратегия: диссертация на соискание ученой степени доктора

tomonidan mehmonxona xo‘jaligini shakllantirish, umumiy ovqatlanish korxonalarini boshqarish va ushbu sohani rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlari yoritilgan.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasini ekonometrik modellashtirish, jumladan, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi hamda samaradorligini baholash masalalari A.M.Rahimov, H.N.Sabirov, Z.I.Ravshanov, N.F.Axmedova, O.N.Allonazarov[5] boshqa olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Biroq yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini hududiy kesimda aniqlash, ularga ta’sir etuvchi omillarni statistik jihatdan baholash, ekonometrik modellar asosida miqdoriy tahlil qilish hamda istiqboldagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlash masalalari yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish, istiqboldagi ko‘rsatkichlarini prognozlash hamda ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish hamda xizmatlar sohasini ekonometrik tadqiq etishning metodologik yondashuvlarini tizimlashtirish;

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish va ekonometrik baholash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish hamda undan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari va ularga ta’sir etuvchi omillar dinamikasini statistik usullar asosida tahlil qilish;

экономических наук. – Белгород, 2006. – 391 с.; А.Т.Васюкова, В.И.Пивоваров, К.В.Пивоваров // Организация производства и управление качеством продукции в общественном питании: учебное пособие. – Москва, 2006 г.; В.А.Сидякова // Повышение качества услуг предприятий общественного питания: дис. … канд. экон. наук: 08.00.05. – Княгинино, 2015 г.

[5]A.M.Rahimov // Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari ko‘rsatishni ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2021 y.; H.N.Sabirov // Oziq-ovqat sanoatining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021 y.; Z.I.Ravshanov // Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ovqatlanish xizmatlari samaradorligini oshirish masalalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2025 y.; N.F.Axmedova // Hudud oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2025 y.; O.N.Allonazarov // Mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2024 y.;

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishini baholashning statistik mezonlari va usullarini takomillashtirish;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmiga ta’sir etuvchi demografik, iqtisodiy, investitsion va infratuzilmaviy omillarni aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ekonometrik usullar asosida baholash;

xizmatlar rivojlanishidagi tarkibiy o‘zgarishlarni hisobga oluvchi differensial ekonometrik modelni shakllantirish va uning amaliy qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining istiqboldagi o‘zgarishlarini turli ssenariylar asosida prognozlash hamda ko‘p variantli ekonometrik prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib, Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasi hamda uning rivojlanish dinamikasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik guruhlash va taqqoslash, dinamika qatorlarini taqqoslanadigan narxlarga keltirish, min-max me’yorlashtirish va entropiya usuliga asoslangan indeks usuli, korrelyatsion tahlil, ko‘p omilli regressiya, CES va Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyalari, siljitilgan eng kichik kvadratlar (COLS) usulida chegaraviy baholash, nochiziqli eng kichik kvadratlar usuli, differensial modellashtirish, ARIMA, eksponensial tekislash va sezgirlik tahlili usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini integratsiyalashgan holda ifodalovchi samaradorlik indeksining (I_T) qiymatlarini $0 \leq I_T \leq 30$– “juda past”, $30 < I_T \leq 50$– “past”, $50 < I_T \leq 70$– “o‘rta”, $70 < I_T \leq 85$– “yaxshi” va $85 < I_T \leq 100$– “yuqori” darajadagi samaradorlik mezonlari asosida guruhlash va baholash taklif etilgan;

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining investitsion-infratuzilmaviy salohiyatidan foydalanishni baholash metodikasi CES funksiyasi asosida takomillashtirilib, integral salohiyat ko‘rsatkichi, nazariy xizmatlar hajmi, K_{ideal} indikatori hamda salohiyatdan foydalanish darajasini tasniflash mezonlari ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining yillik o‘zgarishini asosiy kapitalga investitsiyalar hamda mehmonxonalar va ovqatlanish korxonalari sonini kompleks ifodalovchi infratuzilmaviy ko‘rsatkichning chiziqli bo‘lmagan ta’siri asosida baholash imkonini beruvchi differensial-ekonometrik model ishlab chiqilgan;

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi ko‘rsatkichlari ekonometrik modellar asosida baholanib, 2030-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishini statistik baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar tizimi va ularning taqqoslanadigan narxlardagi qatori shakllantirilgan;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining dinamikasi hamda unga ta’sir etuvchi omillar statistik usullar asosida baholangan;

xizmatlar hajmiga sohadagi bandlik va xorijiy turistlar oqimining ta’sirini miqdoriy baholovchi ko‘p omilli ekonometrik model ishlab chiqilgan;

xizmatlar hajmining o‘sishini xizmat ko‘rsatish sig‘imi va tashqi zarbalar bilan bog‘lovchi differensial ekonometrik model taklif etilgan;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining 2026 – 2030-yillarga mo‘ljallangan uch ssenariyli ekonometrik prognozlari ishlab chiqilgan;

ekonometrik modellashtirish natijalari asosida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan statistik va ekonometrik usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, hisob-kitoblarda foydalanilgan ma’lumotlarning rasmiy statistik manbalardan, xususan, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda tegishli davlat tashkilotlari ma’lumotlaridan olinganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash, ta’sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash hamda kelgusidagi o‘zgarishlarni prognozlash uchun qo‘llanilgan ekonometrik modellar va statistik tahlil natijalari asosida shakllantirilgan ilmiy xulosalar ishonchli hisoblanadi. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda sinovdan o‘tkazilganligi hamda tadqiqot natijalarining Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan ma’qullanganligi ularning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini statistik jihatdan tavsiflash, ularga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik usullar asosida aniqlash hamda rivojlanish jarayonlarini modellashtirish bo‘yicha nazariy va uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish bilan bog‘liq. Tadqiqot davomida shakllantirilgan ilmiy xulosalar, tanlangan ko‘rsatkichlar tizimi va ishlab chiqilgan ekonometrik modellar Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Model natijalari asosida ishlab chiqilgan prognoz variantlaridan hududiy xizmatlar bozorining kelgusidagi o‘zgarishlarini baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va rivojlanish strategiyalarini ilmiy jihatdan asoslashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmini oshirish, soha rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan samarali foydalanish hamda hududiy xizmatlar bozorini statistik-ekonometrik baholash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari

asosida ishlab chiqilgan tavsiyalardan viloyat va tumanlar miqyosida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlarini tayyorlash, investitsiya yo‘nalishlarini belgilash, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish hamda istiqboldagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlash jarayonlarida foydalanish mumkin. Tadqiqotda qo‘llanilgan statistik tahlil usullari, ekonometrik modellashtirish yondashuvlari va prognozlash natijalari oliy ta’lim muassasalarida “Ekonometrika”, “Statistika”, “Iqtisodiy statistik tahlil” va “Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish” fanlari bo‘yicha ma’ruza matnlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar hamda amaliy mashg‘ulotlar materiallarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini integratsiyalashgan holda ifodalovchi samaradorlik indeksining (I_T) qiymatlarini $0 \leq I_T \leq 30$– “juda past”, $30 < I_T \leq 50$– “past”, $50 < I_T \leq 70$– “o‘rta”, $70 < I_T \leq 85$– “yaxshi” va $85 < I_T \leq 100$– “yuqori” darajadagi samaradorlik mezonlari asosida guruhlash va baholash bo‘yicha taklifi Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 3-avgustdagi “Turizm sohasini rivojlantirishga oid qaror ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 415-8-0-Q/23-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2026-yil 23-sentyabrdagi 08-08/1918-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari korxonalarining samaradorlik darajasini tabaqalashtirilgan mezonlar asosida baholash hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni shakllantirish imkoniyati yaratilib, xizmatlar sohasi samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyati yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining investitsion-infratuzilmaviy salohiyatidan foydalanishni baholash metodikasi CES funksiyasi asosida takomillashtirilib, integral salohiyat ko‘rsatkichi, nazariy xizmatlar hajmi, K_{ideal} indikatori hamda salohiyatdan foydalanish darajasini tasniflash mezonlari bo‘yicha taklifi Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 3-avgustdagi “Turizm sohasini rivojlantirishga oid qaror ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 415-8-0-Q/23-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2026-yil 23-sentyabrdagi 08-08/1918-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasi salohiyatidan foydalanish darajasini hududlar kesimida baholash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan tabaqalashtirilgan rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining yillik o‘zgarishini asosiy kapitalga investitsiyalar hamda mehmonxonalar va ovqatlanish korxonalari sonini kompleks ifodalovchi infratuzilmaviy ko‘rsatkichning chiziqli bo‘lmagan ta’siri asosida baholash imkonini beruvchi differensial-ekonometrik modeli bo‘yicha berilgan taklifi Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 3-avgustdagi “Turizm sohasini rivojlantirishga oid qaror

ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 415-8-0-Q/23-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2026-yil 23-sentyabrdagi 08-08/1918-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga tatbiq etish natijasida viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasini baholash va mavjud infratuzilmaviy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni shakllantirish imkoniyati yaratilib, yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 2023-yildagi 6 649,4 mlrd so‘mdan 2024-yilda 8 226,1 mlrd so‘mga, 2025-yilda esa 9 760,8 mlrd so‘mga yetgan;

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi ko‘rsatkichlari ekonometrik modellar asosida baholanib, 2030-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilganligi yuzasidan berilgan taklifi Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 3-avgustdagi “Turizm sohasini rivojlantirishga oid qaror ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 415-8-0-Q/23-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2026-yil 23-sentyabrdagi 08-08/1918-sonli ma’lumotnomasi). Olingan prognoz natijalari asosida Surxondaryo viloyatida xizmatlar hajmining istiqboldagi o‘zgarishlarini baholash va 2030-yilgacha rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Ishning umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishini ekonometrik tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini statistik-ekonometrik modellashtirishning metodologik asoslari hamda Yashash va

umumiy ovqatlanish xizmatlarini ekonometrik baholashning xorijiy tajribasi o‘rganilgan.

Dissertatsiya ishida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari korxonalari faoliyatini statistik jihatdan baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilib, xizmatlar hajmi, korxonalar soni, asosiy kapitalga investitsiyalar, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi, bandlik, aholi daromadlari, turistik oqimlar va hududiy iqtisodiy faollikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar asosiy guruhlarga ajratilgan.

Tadqiqotda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar demografik, turistik, infratuzilmaviy, investitsion, iqtisodiy va mehnat omillariga guruhlangan. Aholi soni va daromadlari ichki talabni, turistik oqimlar xizmatlarning tashqi va ichki talabini, mehmonxonalar hamda umumiy ovqatlanish korxonalari soni xizmatlar taklifini, investitsiyalar esa sohaning moddiy-texnik bazasi va rivojlanish imkoniyatlarini ifodalovchi omillar sifatida qaralgan.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini statistik-ekonometrik tadqiq etishda korrelyatsion va regressiya tahlili, ko‘p omilli ekonometrik modellashtirish, vaqt qatorlarini tahlil qilish, trend modellari, dinamik modellar hamda prognozlash usullaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Modelga kiritiladigan omillarni tanlashda ularning iqtisodiy mazmuni bilan bir qatorda statistik ahamiyatliligi, o‘zaro bog‘liqligi va multikollinearlik darajasini hisobga olish zarurligi belgilangan.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini statistik-ekonometrik tadqiq etishda xorijiy mamlakatlarda xizmatlar hajmi, turistik talab, mehmonxona bandligi, investitsiyalar, aholi daromadlari va boshqa omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy baholashga yo‘naltirilgan usullardan foydalaniladi. Tadqiqotlarda ko‘p omilli regressiya, vaqt qatorlari, dinamik panel ma’lumotlar, gravitatsion modellar hamda ekonometrik prognozlash usullari keng qo‘llanilmoqda.

Xorijiy tajribada qo‘llanilgan mazkur yondashuvlarning umumlashtirilgan ko‘rinishi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvalda keltirilgan yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar rivojlanishini baholashda yagona usuldan foydalanish o‘rniga statistik tahlil, omillarni saralash, ekonometrik modellashtirish va prognozlashni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash samarali metodik yechim hisoblanadi. Bunda hududning iqtisodiy salohiyati, demografik tarkibi, turistik oqimlari, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi va investitsion faolligini hisobga olish modelning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqotda xorijiy tajribadagi mazkur yondashuvlar Surxondaryo viloyatining hududiy xususiyatlari va mavjud statistik ma’lumotlar bazasiga moslashtirildi. Natijada yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishini statistik tahlil qilish, ta’sir etuvchi omillarni tanlash, ekonometrik bog‘liqliklarni baholash, model parametrlarini diagnostik tekshirish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlashni qamrab oluvchi metodik ketma-ketlik shakllantirildi.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini statistik-ekonometrik tadqiq etish yondashuvlari[6]

Mamlakat	Tadqiqot yo‘nalishi	Qo‘llanilgan statistik-ekonometrik yondashuv	Tadqiqotda foydalanish imkoniyati
AQSh	Restoran xizmatlari hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar	Ko‘p omilli regressiya, ekonometrik modellashtirish	Ovqatlanish xizmatlari hajmiga ta’sir etuvchi iqtisodiy va demografik omillarni miqdoriy baholash
Buyuk Britaniya	Mehmonxona bandligi va turistik talab	Vaqt qatorlari modellari, prognozlash	Mehmonxona xizmatlari rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va istiqbol ko‘rsatkichlarini prognozlash
Xitoy	Turizm va xizmatlarning hududiy rivojlanishi	Dinamik panel modellar, regressiya va gravitatsion modellar	Hududlar kesimida xizmatlar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni baholash
Qozog‘iston	Turistik talab va xizmatlar hajmi	Dinamik panel ma’lumotlar modeli	Turistik oqimlar va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni hududlar bo‘yicha aniqlash
Rossiya	Turizm talabi va ichki turizm iste’moli	Regressiya, VAR va dinamik ekonometrik modellar	Daromad, transport, turistik oqimlar va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi dinamik munosabatlarni baholash
O‘zbekiston	Turizm va turistik xizmatlar hajmini prognozlash	Ekonometrik modellashtirish, vaqt qatorlari va prognozlash	Hududiy turizm va yashash xizmatlari rivojlanishini prognozlash uchun metodik asos yaratish

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining statistik tahlili va baholash metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar va omillar dinamikasi tahlili, Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari hamda Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligining statistik-ekonometrik tahlili tadqiq qilingan.

Ilmiy tadqiqotlar asosida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish samaradorligini baholashda integrallashgan samaradorlik indeksidan foydalanish taklif etildi. Indeksni shakllantirishda xorijiy va ichki turistlar soni, mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalari soni, jami xizmatlar hajmi hamda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi hisobga olinib, ularning nisbiy ahamiyatidan kelib chiqib tegishli vaznlar belgilandi.

Yuqoridagilar asosida mintaqalarda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish samaradorligini oshirishning integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash formulasi quyidagi ko‘rinishga keltirildi:

[6] Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

$$I_T = \sum_{k=1}^{3} \omega_k \left(\frac{1}{n_k} \sum_{j \in G_k} Z_{jt}\right) \quad (1)$$

Ushbu ifodani quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

$$I_T = \omega_1 * \frac{T_I + T_X}{2} + \omega_2 * \frac{K_M + K_O}{2} + \omega_3 * \frac{V_X + V_I}{2} \quad (2)$$

Taklif etilgan uslubiyat bo‘yicha viloyatda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining samaradorlik darajasini baholash amalga oshirildi. Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarning vazni 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash mezonlari va ko‘rsatkich qiymatlari[7]

№	Mezonlar	Ko‘rsatkich Vazni
1	Xorijiy va ichki turistlar koeffitsiyenti	0.35
2	Mexmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalari koeffitsiyenti	0.30
3	Jami xizmatlar hajmi va investitsiyalar hajmi	0.35

Mazkur tendensiyalar viloyatga 2010 – 2025-yillarda tashrif buyurgan turistlar soni dinamikasida o‘z aksini topgan (1-rasm).



1-rasm. 2010 – 2025-yillar oralig‘ida Surxondaryo viloyatiga tashrif buyuruvchi xorijiy va ichki turistlar hajmi[8]

[7] Ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[8] Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Natijaga erishish maqsadida jami xizmatlar hajmi, xorijiy va ichki turistlar soni, mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalari sonining so‘ngi 15 yillik ma’lumotlari olindi. Ularning qiymatlari turlicha bo‘lganligi sababli normallashtirilgan qiymatlari aniqlab olindi (3-jadval).

3-jadval

Surxondaryo viloyatida oxirgi 15 yilda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish samaradorligini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholashning ko‘rsatkichlar qiymatlari[9]

Yillar	V_X	V_I	T_{X+I}	K_M	K_O
2010	0,00	0,00	0,0	0,0	0,0
2011	0,03	0,67	2,2	4,1	6,1
2012	0,05	1,47	4,8	6,1	7,2
2013	0,09	3,24	9,4	4,1	9,3
2014	0,13	3,86	13,9	6,1	11,4
2015	0,20	5,38	24,5	10,2	13,5
2016	1,44	6,73	35,9	18,4	19,5
2017	1,71	13,10	47,5	24,5	31,2
2018	2,14	29,79	59,4	24,5	47,5
2019	2,67	50,58	67,6	0,0	54,9
2020	2,38	42,59	77,1	22,4	90,4
2021	3,52	51,50	64,1	2,0	107,1
2022	4,77	49,38	54,6	77,6	118,3
2023	5,92	79,86	71,2	81,6	137,5
2024	91,59	72,11	89,2	91,8	99,5
2025	100,00	100,00	100,0	100,0	100,0

Integrallashgan samaradorlik indeksi qiymatlarini baholash shkalasi 4-jadvalda berilgan.

4-jadval

Yetishtirish darajasini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash shkalasi[10]

Chegaraviy koeffitsient	Tavsifiy daraja	Holat bo‘yicha izoh
$0 \leq I_T \leq 30$	Juda past darajadagi samaradorik	Sohaning rivojlanishi sust, infratuzilma yetarli emas
$30 \leq I_T \leq 50$	Past darajadagi samaradorik	Rivojlanish mavjud, lekin barqaror emas
$50 \leq I_T \leq 70$	O‘rta darajadagi samaradorik	Soha faol, lekin salohiyat to‘liq ochilmagan
$70 \leq I_T \leq 85$	Yaxshi darajadagi samaradorik	Barqaror rivojlanish mavjud
$85 \leq I_T \leq 100$	Yuqori darajadagi samaradorik	Sohaning rivojlanishi yuqori darajada

[9] Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.
[10] Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida hisoblangan.

4-jadval hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra, so‘nggi 15 yilda integrallashgan samaradorlik indeksi 31,3 ni tashkil etib, “past” darajada baholangan. So‘nggi 5 yilda esa mazkur ko‘rsatkich 63,8 ga yetib, “o‘rta” darajaga ko‘tarilgan. Bu Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligi so‘nggi yillarda sezilarli yaxshilanib, intensiv rivojlanish bosqichiga o‘tayotganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot ishida qo‘llanilayotgan yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini va xizmat faoliyatining ideallik darajasi holatini baholash uchun CES modelining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

$$K_{Ideal} = \frac{Y_{haqiqiy}}{Y_{CES}} \tag{3}$$

$$Y_{CES} = A[\delta X_1^{-\rho} + (1-\delta)X_2^{-\rho}]^{-\frac{1}{\rho}} \tag{4}$$

bu yerda:

Y – yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi;

A – texnologik rivojlanish koeffitsiyenti;

δ – ishlab chiqarish omillarining ulush koeffitsiyenti;

ρ – ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi substitutsiya parametridir;

X_1 – investitsiyalar hajmi;

X_2 – xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi ko‘rsatkichi.

Berilgan ifodada A-modelning texnologik parametri, δ-omillar ulushi parametri hamda ρ-substitutsiya parametri bo‘lganligi uchun ularning qiymati statistik ma’lumotlar asosida eng kichik kvadratlar usuli yordamida ekonometrik baholash orqali aniqlab olinadi. Buning uchun quyidagi formula o‘rinli:

$$SSE = \sum_{i=1}^{n} (Y_i - \widehat{Y}_i)^2 \rightarrow \min \tag{5}$$

Mazkur model parametrlarini baholash va ekonometrik tahlilni amalga oshirish uchun kerakli so‘nggi 15 yillik statistik ma’lumotlarni jamladik va ularning normallashtirilgan qiymatlaridan foydalangan holda natijaga erishdik. Shuningdek, GRETL dasturi hamda eng kichik kvadratlar usuli yordamida CES modeli parametrlarini baholash natijasida texnologik rivojlanish koeffitsiyenti (A=92,47), investitsiyalar omilining ulush koeffitsiyenti (δ=0,7413) hamda substitutsiya parametri (ρ=2,9142) ekanligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra xizmatlar hajmining shakllanishida investitsiyalar omili 74,13 % ulushga ega bo‘lib, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining ulushi 25,87 %ni tashkil etadi. Substitutsiya parametrining musbat qiymati investitsiyalar va infratuzilma omillari o‘rtasida o‘zaro ta’sir mavjudligini ko‘rsatadi. CES modelining natijasining holatini ifodalovchi shkala (5-jadval), hamda mavjud qiymatlarga tayangan holda yakuniy xulosa quyidagicha (6-jadval):

5-jadval

K_{Ideal} ko‘rsatkichi bo‘yicha xizmatlar sohasi holatini tasniflash mezonlari[11]

K_{Ideal}	Holati
$0 \leq K_{Ideal} < 20$	Juda past
$20 \leq K_{Ideal} < 40$	Past
$40 \leq K_{Ideal} < 60$	Qoniqarli
$60 \leq K_{Ideal} < 80$	Yaxshi
$80 \leq K_{Ideal} < 95$	Juda yaxshi
$K_{Ideal} \geq 95$	Ideal

Mazkur tasnif xizmatlar sohasining rivojlanish holatini yagona mezon asosida baholash hamda davrlar kesimida qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi (6-jadval).

6-jadval

CES modeli asosida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining nazariy qiymati va ideallik darajasini baholash natijalari[12]

Yil	$Y_{haqiqiy}$	Y_{CES}	K_{ideal}%	Holati
2011	7.24	68.62	8.45	Juda past
2012	9.19	150.29	4.90	Juda past
2013	13.09	323.53	3.24	Juda past
2014	16.48	388.19	3.40	Juda past
2015	22.64	540.92	3.35	Juda past
2016	132.10	683.46	15.46	Juda past
2017	1781.10	1314.58	108.39	Ideal
2018	2128.60	2748.38	61.96	Yaxshi
2019	2739.90	2767.01	79.22	Yaxshi
2020	2388.50	3973.06	48.10	Qoniqarli
2021	3674.10	4372.64	67.22	Yaxshi
2022	5182.70	4928.09	84.14	Juda yaxshi
2023	6649.40	7601.43	69.98	Yaxshi
2024	8226.10	6865.43	95.86	Juda yaxshi
2025	9760.80	8846.30	88.27	Juda yaxshi

Tadqiqotlar davomida shuni ko‘rish mumkinki, CES modeli asosida baholash natijalari yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish dinamikasi hamda mavjud resurslardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini berdi. 2011 – 2016-yillarda ko‘rsatkich past darajada shakllanib, investitsiyalar va infratuzilmaning sust rivojlanganligini ko‘rsatdi. 2017-yildan boshlab investitsiyalar, turizm infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatish obyektlarining kengayishi hisobiga ijobiy o‘sish kuzatildi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi ta’sirida ko‘rsatkich pasaygan bo‘lsa, 2021-yildan boshlab soha bosqichma-bosqich tiklandi. 2022 – 2025-yillarda yuqori o‘sish kuzatilib, 2025-yilda ko‘rsatkich 88,27 % ni tashkil etdi va soha “juda yaxshi” holat darajasiga erishdi.

Salohiyatdan foydalanish darajasining yillar bo‘yicha o‘zgarishi 2-rasmda tasvirlangan.

[11] Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida hisoblangan.
[12] Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida hisoblangan.



2-rasm. Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining investitsion-infratuzilmaviy salohiyatidan foydalanish darajasi (K_{ideal}, foizda)[13]

Dissertatsiyaning **“Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishini ekonometrik modellashtirish va prognozlash”** deb nomlangan uchinchi bobida Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining ko‘p omilli ekonometrik modeli, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining strukturaviy o‘zgarishlarni hisobga oluvchi differensial ekonometrik modeli hamda Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining ko‘p variantli ekonometrik prognozlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasi rivojlanishi hamda unga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko‘rsatkichlari ko‘p omilli regressiya modeli yordamida tahlil qilindi. Modelda foydalaniladigan zaruriy ko‘rsatkichlar va ularning izohi quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadvaldagi ko‘rsatkichlar logarifmlari o‘rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlariga ko‘ra, natijaviy ko‘rsatkich ichki turistlar (0,948), xorijiy turistlar (0,933), aholi soni (0,923) va ovqatlanish korxonalari soni (0,895) bilan eng kuchli bog‘langan, mehmonxonalar soni bilan esa bog‘liqlik ancha kuchsiz (0,733). Biroq omillarning o‘zlari ham o‘zaro yuqori korrelyatsiyaga ega, masalan, aholi soni bilan ovqatlanish korxonalari soni o‘rtasida 0,974, ichki va xorijiy turistlar soni o‘rtasida 0,972. Shu sababli bitta modelga ikkitadan ortiq omil kiritish kuchli multikollinearlikka olib keladi. Bir va ikki omilli barcha 21 ta spetsifikatsiya baholanib, ulardan koeffitsiyentlari musbat, 5 % darajada ahamiyatli va VIF qiymati 10 dan kichik bo‘lganlari ajratildi. Turistik obyektlar soni 16 yil davomida atigi 35-38 qiymatlarni qabul qilgani uchun nomzodlar qatoridan chiqarildi, o‘rtacha ish haqi bo‘yicha rasmiy qator esa faqat 2017-yildan e’lon qilingani sababli tahlilga kiritilmadi.

[13] Rasm muallif ishlanmasi asosida tayyorlangan.

7-jadval

Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining rivojlanishini ko‘p omilli tahlili uchun zarur omillar ifodasi va ularning iqtisodiy mazmuni[14]

Belgi-lanishi	O‘zgaruvchi nomi	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkichning iqtisodiy mazmuni	Modeldagi funksional roli
Y	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi	mlrd so‘m	Xizmatlar bozorining hududiy hajmini ifodalovchi natijaviy ko‘rsatkich	Bog‘liq o‘zgaruvchi
X_1	Aholi soni	ming kishi	Potensial ichki talab va iste’molchilar bazasini tavsiflaydi	Demografik va talab omili
X_2	Turistik obyektlar soni	dona	Turizm infratuzilmasining rivojlanganligi va xizmatlar taklifi salohiyatini aks ettiradi	Infratuzilmaviy omil
X_3	Mehmonxonalar soni	dona	Joylashtirish vositalari tarmog‘ining sig‘imi va yashash xizmatlari taklifini ifodalaydi	Yashash xizmatlari taklifi omili
X_4	Umumiy ovqatlanish korxonalari soni	dona	Ovqatlanish xizmatlari tarmog‘ining qamrovi va xizmat ko‘rsatish imkoniyatini tavsiflaydi	Ovqatlanish xizmatlari taklifi omili
X_5	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so‘m	Moddiy-texnik bazani kengaytirish, modernizatsiya qilish va yangi obyektlar tashkil etish imkoniyatini belgilaydi	Investitsion omil
X_6	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	mlrd so‘m	Hududiy iqtisodiy faollik va umumiy to‘lov qobiliyatini makroiqtisodiy jihatdan ifodalaydi	Hududiy iqtisodiy muhit omili
X_7	Aholining o‘rtacha ish haqi	so‘m	Aholi daromadlari va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini, ya’ni to‘lov qobiliyatini tavsiflaydi	Daromad va ichki talab omili
X_8	Ichki turistlar soni	ming kishi	Ichki turistik oqim va yashash hamda ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan talabni aks ettiradi	Ichki turistik talab omili
X_9	Xorijiy turistlar soni	ming kishi	Tashqi turistik oqim va hududdagi turistik xizmatlarga bo‘lgan talab hajmini ifodalaydi	Tashqi turistik talab omili
X_{10}	Yashash va umumiy ovqatlanish sohasida band bo‘lganlar soni	ming kishi	Tarmoqning mehnat salohiyati, xizmat ko‘rsatish quvvati va ishchi kuchidan foydalanish ko‘lamini tavsiflaydi	Mehnat resurslari omili

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarning o‘lchov birliklari va miqdoriy qiymatlari bir-biridan farq qilganligi sababli tahlil natijalarining aniqligini ta’minlash maqsadida ularning logarifmlangan shakllaridan foydalanildi.

Ko‘p omilli regressiya modelini baholash natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

[14] Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.

8-jadval

Ko‘p omilli regressiya modelini baholash natijalari (bog‘liq o‘zgaruvchi ln Y, 2010 – 2025-yillar)[15]

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-statistika	p-qiymat	p-qiymat (HAC)
Ozod had	3,592	0,871	4,13	0,0012	0,0003
ln X_9– xorijiy turistlar soni	0,534	0,099	5,41	0,0001	0,0002
ln X_{10}– sohada band bo‘lganlar soni	1,286	0,404	3,18	0,0072	0,0021
Kuzatuvlar soni	16	R^2	0,927	Tuzatilgan R^2	0,916
F-statistika	82,88	p(F)	<0,0001	Model standart xatosi	0,179
Durbin-Uotson	0,71	Breusch-Godfrey LM(1)	4,49 (p = 0,034)	Breusch-Pagan LM	2,93 (p = 0,231)
Jarque-Bera	0,96 (p = 0,617)	Ramsey RESET F	24,8 (p = 0,0003)	VIF	2,51
AIC	−7,02	BIC	−4,70	MAPE, %	13,9

8-jadval natijalariga ko‘ra, sohada band bo‘lganlar soni va xorijiy turistlar soni xizmatlar hajmiga ijobiy hamda statistik ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bandlar sonining 1 % ga oshishi xizmatlar hajmini o‘rtacha 1,29 % ga, xorijiy turistlar sonining 1 % ga oshishi esa 0,53 % ga oshiradi. Modelning tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyenti 0,916 ni tashkil etib, natijaviy ko‘rsatkichdagi o‘zgarishlarning 91,6 % i modelga kiritilgan omillar bilan izohlanadi.

Model diagnostikasi birinchi tartibli avtokorrelyatsiya va funksional shaklda nochiziqlilik mavjudligini ko‘rsatdi. Shu sababli koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatliligi Nyui–Uest usulidagi chidamli standart xatolar yordamida tekshirildi va ikkala omil ham ahamiyatliligini saqlab qoldi. Shuningdek, geteroskedastiklik va qoldiqlarning normal taqsimlanishi bo‘yicha jiddiy muammolar aniqlanmadi. Ramsey RESET testi natijalari esa log-chiziqli model xizmatlar rivojlanishining murakkab dinamikasini to‘liq ifodalay olmasligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar xizmatlar hajmining o‘sish qonuniyatlarini chuqurroq ochib berish va prognozlash aniqligini oshirish maqsadida keyingi bosqichda nochiziqli differensial modelni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.Mazkur holatda model holati quyidagiga teng:

$$\ln \hat{Y}_t = 3{,}592 + 0{,}534 \ln X_{9t} + 1{,}286 \ln X_{10t}$$

Model natijalari xizmatlar hajmining shakllanishida sohadagi mehnat resurslari va xorijiy turizm oqimi muhim omillar ekanini ko‘rsatadi. Saralash shartlarini qanoatlantirgan uchta ikki omilli model 9-jadvalda taqqoslangan.

[15] Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.

9-jadval

Saralash shartlarini qanoatlantirgan ko‘p omilli modellarning taqqoslanishi (bog‘liq o‘zgaruvchi ln Y, 2010 – 2025-yillar)[16]

Ko‘rsatkich	aholi soni (X_1) va xorijiy turistlar (X_9)	mehmonxonalar soni (X_3) va xorijiy turistlar (X_9)	xorijiy turistlar (X_9) va sohadagi bandlar (X_{10})
Birinchi omil elastikligi (HAC p)	2,577 (0,0397)	0,400 (0,0222)	0,534 (0,0002)
Ikkinchi omil elastikligi (HAC p)	0,448 (0,0198)	0,645 (<0,0001)	1,286 (0,0021)
Tuzatilgan R^2	0,893	0,900	0,916
AIC	−3,14	−4,20	−7,02
VIF	5,26	1,59	2,51
Durbin-Uotson	0,88	0,89	0,71
Breusch-Godfrey LM(1), p	0,046	0,108	0,034
Ramsey RESET, p	0,0001	<0,0001	0,0003
MAPE, %	15,65	15,03	13,95

9-jadval natijalariga ko‘ra, xorijiy turistlar soni barcha spetsifikatsiyalarda statistik ahamiyatli bo‘lib, uning elastikligi 0,448 – 0,645 oralig‘ida shakllandi. Bandlar soni kiritilgan model tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyenti, AIC va o‘rtacha xatolik bo‘yicha eng yaxshi natijani ko‘rsatdi. Aholi soni va mehmonxonalar soni bilan bog‘liq modellarda tegishli iqtisodiy va vaqt qatori cheklovlari aniqlandi. Barcha modellarda RESET testi funksional shaklning cheklanganligini ko‘rsatdi. Natijalar xizmatlar hajmini oshirishda xorijiy turistik talab va sohani kadrlar bilan ta’minlash muhim omillar ekanini tasdiqlaydi. Haqiqiy va hisoblangan qiymatlar 3-rasmda taqqoslangan.



3-rasm. Xizmatlar hajmining haqiqiy va ko‘p omilli model bo‘yicha hisoblangan qiymatlari (2025-yil narxlarida, mlrd so‘m)[17]

[16] Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
